

## TA'LIM JARAYONIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING TUTGAN O'RNI

**Gulbahor Yuldasheva**

Farg'onan davlat universiteti

Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lif jarayonini olib borishda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish mexanizmlari hamda metodologiyasi muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy tarmoqlar, ta'lif, texnologiya, metod, o'qitish, AKT.

### **KIRISH**

Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari axborot resurslaridan foydalanishda yangi iste'mol odatlarining keng tarqalishi, o'zaro ta'sirning kommunikativ amaliyotini o'zgartirish bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun dominant platformaga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlarning uyushgan iste'molchilar jamiyati sifatida jadal rivojlanishi va beqiyos imkoniyatlari ularni zamonaviy odamlar uchun qulay va jozibador minbar, hamjamiyat va fikrlarini bema'lol izoh qilish makoniga aylantirdi. Kerakli maqom va mavqega taqlid qilish, hamfikrlar guruhlari, jamoalariga kirish imkoniyati tufayli ijtimoiy tarmoqlar juda ommabop bo'lib ketdi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil 1- yanvar holatiga O'zbekistonda 36,02 million kishi istiqomat qiladi. 10 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning soni 5,88 millionni, ya'ni umumiy aholi sonidagi ulushi 16 % ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich yildan -yilga o'sib bormoqda. Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yil 15 dekabr xolatiga Internet foydalanuvchilar soni 31 millionni tashkil etdi, bu yil

davomida 14 foizga o'sishni ko'rsatadi. Buumumiy sonda o'smirlar 16 foizni, ya'ni sal kam 5 millionni tashkil qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ijtimoiy tarmoqlarning psixologik va ijtimoiy farovonlikka ta'sirimasalalari turli mamlakatlar olimlarining diqqat markazida turibdi. Osiyo mintaqasi oimlari tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi ko'proq yoshlarning Internetda zamonaviy shaxsni namoyish etish zaruratidan kelib chiqqan holda axborotning haddan tashqari yuklanishiga moslashish qobiliyatini o'rghanishga qaratilgan. Media makonining kengayishi, uning jamiyatning barcha jabhalariga: ta'lim, dam olish, kundalik hayot va hokazolarga kirib borishi zamonaviy o'smirni ijtimoiy tarmoqlarning faol foydalanuvchisiga aylantirmoqda.

Ta'kidlanishicha, endilikda o'smirlar qadriyatlarini va turmush qoidalarini shakllantirishni oflayn va onlayn maydonlarda amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy dunyoda ular orasidagi chegara yo'qolib borayotgandek va telefoni bo'lган одам доими ravishda gadgetni qo'lida ushlab turmasa va boshqa narsalar bilan band bo'lsa ham, doimo "onlayn" bo'ladi, degan fikr bor, chunki u doimiy ravishda messenjerlardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi va kerak bo'lganda yordam uchun Internetga murojaatqilmoqda.

Ta'lim jarayoni raqamli texnologiya bilan ta'minlanmoqda va ushbu jarayon foydalanuvchilar uchun katta qulayliklar joriy qilinmoqda. Muloqot jarayonlari raqamli texnologiya vositasida o'zgarmoqda, mobil aloqa, video aloqa, yuzma-yuz aloqa shakliga o'tmoqda. Til o'rghanish, o'rgatish jarayonlari raqamli texnologiya yordamida keskin rivojlanmoqda. Uning yordamida til o'rghanishning tabiiy muhiti yaratilmoqda. Bugun bunday o'zgarishlar odatiydek go'yo. Uni shu tarzda qabul qilinishi, tarmoq foydalanuvchilarining bilim, ko'nikmasi bilan bog'liq. Yuqorida qayd etilgan muxim uch omil ta'lim, muloqot va chet tilini o'rghanish jarayonlari bir biriga chambarchas bog'liq bo'lган tarmoqga ulangan. Ushbu tarmoq so'nggi yillarda alohida ko'rinishda shakllandi va takomillashdi. Hozir deyarli barcha shunday tarmoqlar foydalanuvchisiga aylandi. Bunday tarmoqlar ijtimoiy jamiyatni bir biriga bog'lashga, fikr almashishga,

muxim his tuyg‘ularini, holatlarini baham ko‘rishga, va masofada turib zarur amallarni bajarishga xizmat qilmoqda. Bu o‘z o‘rnida kelajak texnologiyasi bo‘lishi va insoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan muxim vosita bo‘lib qolishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining shahsiy va kasbiy jarayonda muloqot qilish va ma’lumot almashish uslublarini tubdan o‘zgartirib yubordi. U insonlar uchun aloqa o‘rnatuvchi qurilma sifatida qo‘llanila boshladи. Undan yoshu qari turli maqsadlarda foydalanmoqda. Lekin mohiyatan biz yuqorida qaydetib o‘tgan 3 omilga chambarchas bog‘liq. Demak ulardan biri ta’lim jarayoni bo‘lsa, ushbu jarayon bugun, ijtimoiy tarmoqning eng asosiy foydalanuvchisiga aylandi. Zero ta’lim jarayonining barcha bosqichida ijtimoiy tarmoq vositasidan foydalanishning samarasi ancha yuqori. Ijtimoiy tarmoq vositasidan ta’lim jarayonida foydalanishning dastlabki bosqichida maqsad o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘zaro bog‘lash, qo‘shimcha darslar, ko‘rsatmalar berish, ularning bajarilishi, o‘rganilishini nazoratga olish va ta’limiy jihatdan sifatga, samaradorlikga erishish bo‘lgan. Ya’ni ustoz- shogird an’analariga sodiq qolgan holda ma’lumot almashinuvi, tez va tushunarli bo‘lishini ta’milagan. Hozirgi ijtimoiy tarmoq vazifasi ham huddi shuni tashkiletadi. Sifatli ta’lim, cheksiz muloqot, cheksiz ma’lumotlar omboridan (kutubxona) foydalanish erkinligi, tezkor ma’lumot almashinuvi, aniq va tezkor tahlil va samaradorlik. Shuningdek, ta’lim jarayonining zamon bilan hamnafas ravishda, tadrijiy uslublarni zamonaviy uslublar bilan bog‘lagan holda o‘tkazish, jarayonni qiziqarli tashkil etish, ta’lim oluchilarni fanga, sohaga qiziqishlarini orttirish, jarayonning zavqli bo‘lishini ta’minalash ham nazarda tutilgan [2].

Ijtimoiy tarmoqning til o‘rganishni ta’minlovchi muxim jihat bu ma’lumotlar omboridan erkin foydalanish imkoniyatidir. Ya’ni, dunyo resurslaridan, tez va bepul foydalanish, har xil kutubxonalardan o‘zini qiziqtirgan adabiyotini topish va undan erkin foydalanishdir. Bu jarayonning afzalliklari juda ko‘p. Qog‘oz, pul, vaqt, quvvat, joy tejash mumkin. Demak xohlagan vaqt topgan manbaadan foydalanish, buning uchun pul sarf xarajati qilmaslik, qidiriladigan ma’lumotni tez suratda topish, kerakli

qismini o‘qish, va shu bilan birga ko‘z nuri va ong quvvatini tejash, hamda ortiqcha narsalarni har doim olib yurishdan voz kechish mumkin.

## XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlardan ta’lim jarayonida foydalanish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, bilim qiziqishlarini rivojlantirishni rag‘batlantirishi hamda o‘quv faoliyatiga motivatsiyani oshirishi mumkin. Ta’lim jarayoniga ijtimoiy tarmoqlarni joriy etish axborot makonini kengaytirish, talabalar uchun ochiq va qulay ta’lim resurslarini yaratish hamda ta’lim jarayoni ishtiroychilarining yangicha fikrlash madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarini beradi

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bochaver A.A., Dokuka S.V., Sivak E.V., Smirnov I.B. Internetda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va o‘smirlarda depressiv alomatlar // Klinik va maxsus psixologiya. 2019. T. 8, No 3. 1-18-b.
2. Slyusareva A.E. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘smirlarning o‘zini-o‘zi taqdim etishi // Interaktiv fan. 2019 yil. 12-son
3. Yuldasheva, G. I., & Yuldasheva, M. M. (2021). Factors of informatization of the process of primary education. Экономика и социум, (12-1 (91)), 689-692.
4. G.I.Yuldasheva, M.M.Yo‘ldosheva. Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida”. № 6. 127-130b.
5. G.Yuldasheva., D.Begmatova Zamonaviy ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. International Academic Research Journal 2022. 57-61.
6. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2023). Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirish asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 5(Special issue), 236-240.